



UDK: 94(575.1) "1920/1930":37+00

Azizaxon AXRAROVA,
*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zR VM huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: azizaaxrarova123@gmail.com, ORCID: 0009-0003-1071-0348*

Qo'qon universiteti Andijon filiali Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD D.Xomidov taqrizi asosida

MAXSUS POSYOLKALARDA TA'LIM VA MADANIY – MA'RIFIY MUASSASALAR

Аннотация

Ushbu maqolada sovet hukumatining mustamlakachilik siyosatining mudhish qismlaridan biri – “quloqlashtirish siyosati”ning kelib chiqishi, aynan sovet davlatining boy va nisbatan farovon turmush kechirgan aholiga nisbatan nafratli munosabati va, aksincha, batrak va choriklarga ko'proq yon bosishi qishloqdagi ma'naviy iqlimga salbiy ta'sir ko'rsatgani, qishloq aholisining kambag'al va nochor qismi sovet targ'iboti va tashviqoti ta'sirida boylar va yer-suv egalari nisbatan g'arazli xatti-harakatlarni amalga oshirganligi, bu hol 20-yillar oxirida boshlangan jamoalashtirish va “quloqlashtirish” kampaniyasida ko'plab adolatsizliklarning sodir bo'lishiga sabab bo'lganligi, umuman surgun qilinganlarning oilalari, ayniqsa ayollar va bolalarning ruhiy ahvoli, ularning surgun manzillaridagi ayanchli ahvoli asosan bolalarning xotiralari asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sovet hukumati, quloqlashtirish siyosati, surgun manzillari, aholi punkti, ta'lim muassasalari, bolalar uyi.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ И КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ УЧРЕЖДЕНИЯ В СПЕЦИАЛЬНЫХ ПОСЕЛКАХ.

Аннотация

В данной статье на основе воспоминаний детей освещается, что одна из ужасных частей колониальной политики советского правительства - происхождение "политики раскулачивания," именно ненавистное отношение советского государства к богатому и относительно благополучному населению и, наоборот, большая уступчивость батракам и чернорабочим негативно повлияли на духовный климат в деревне, бедная и беспомощная часть сельского населения под влиянием советской пропаганды и агитации совершала злонамеренные действия в отношении богачей и землевладельцев, что стало причиной множества несправедливостей в кампании коллективизации и "кулачества," начатой в конце 20-х годов, а также психологическое состояние семей ссыльных в целом, особенно женщин и детей, их плачевное положение в местах ссылки.

Ключевые слова: Советское правительство, политика раскулачивания, ссыльные пункты, населенный пункт, образовательные учреждения, детский дом.

EDUCATIONAL AND CULTURAL-ENLIGHTENMENT INSTITUTIONS IN SPECIAL SETTLEMENTS

Annotation

This article highlights the origin of one of the terrible aspects of the Soviet government's colonial policy—the "kulakization policy"—specifically the Soviet state's hateful attitude toward the wealthy and relatively prosperous population and, conversely, its greater concessions to farm laborers and farm laborers, which negatively affected the spiritual climate in the countryside; the fact that the poor and destitute segments of the rural population, under the influence of Soviet propaganda and agitation, committed malicious acts against the wealthy and landowners, which led to numerous injustices during the collectivization and "kulakization" campaign that began in the late 1920s; and the mental state of the families of the exiles in general, especially women and children, and their deplorable condition in the places of exile, primarily based on children's memories.

Key words: Soviet power, deculakization policy, places of exile, special settlements, educational institutions, orphanages.

Kirish. O'zbekistonning sovet davri tarixidagi o'rganilishi zarur bo'lgan masalalardan biri – qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va quloqlashtirish jarayonidir va bu jarayonda maxsus ko'chirilganlar ahvolidir. Bu siyosatni amalga oshirish jarayonida jazo organlarining qishloq aholisiga nisbatan qo'llagan choralari, uning mudhish oqibatlarini xususida mustaqillikkacha bo'lgan davrda lom-mim deyilmagan. Kollektivlashtirish davrida bu siyosatdan norozi bo'lgan dehqonlar asossiz ravishda jazo organlarining tazyiqiga, zo'ravonligiga uchradilar. Mustabid tuzum o'z fuqarolariga qarshi ommaviy jazo choralarni keng qo'lladi. Oqibatda qishloq aholisining asrlar mobaynida shakllangan urf-odat va qadriyatlar va insoniylik huquqi qo'pol ravishda toptaldi. Bu amaliyot natijasida o'zbek qishlog'iga xos bo'lgan tadbirkorlik, mulkka egalik, mehnatdan manfaatdorlik xissi kabi qadriyatlar bo'g'ib qo'yildi va yo'q qilindi. O'zbek qishlog'idagi ijtimoiy

qatlamlar orasiga o'zaro adovat, dushmanlik solindi. Kollektivlashtirish va quloqlashtirish jarayonidagi sovet jazo organlarining tutgan o'rni va rolini haqqoniy va har taraflama o'rganish orqali sovet tuzumining asl qiyofasini ochib berish, yaqin o'tmishimizda yuz bergan mudhish fojialarni mushohada qilish milliy o'zligimizni anglab yetishda hamda o'tmish saboqlaridan to'g'ri xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili (Literature review). Quloq oilalarining surgun qilinishi, surgundagi quloqlarning ayanchli taqdiri masalasi dastlab rossiyalik tarixchi-olimlar tomonidan tadqiq etila boshladi. Bu o'rinda rossiyalik tadqiqotchilardan N.A. Ivaniskiy[5], V.N. Zemskov[4], V.P. Danilov[2], I.V. Zelenin[3], D. Volkogonov[1], N. Mixaylov[7]larning yangi tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish lozimdir. Mazkur tadqiqotlarda sovetlarning quloq qilish

siyosati, bu kompaniyani amalga oshirishda sovet davlati va uning jazo organi bo'lmish OGPU organlarining qishloq aholisiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati, quloq qilish va quloq oilalarini surgun qilishdagi repressiv metodlar birlamchi arxiv manbalari orqali ochib berilgan. Dehqon xo'jaliklarining quloq qilinishi, "quloqlar surguni", mamlakatning turli mintaqalariga badarg'a etilgan "maxsus ko'chirilganlar" taqdiri, tarixi, surgun qilish jarayoni, surgundagilarning ayanchli ahvoli V.N.Zemskov qalamiga mansub tadqiqot ishlarida o'z aksini topdi. Bu maqolalarda sobiq ittifoq hududi doirasida maxsus posyolkalardagi "quloqlar" qismati yoritilgan. Ularda qisman O'rta Osiyodagi mehnat posyolkalaridagi ahvol ham o'z ifodasini topgan. Taniqli olim N.A. Ivaniskiyning monografik tadqiqotida butun ittifoq misolida yoritib o'tilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kollektivlashtirish va quloq qilish siyosati mavzuga doir adabiyotlarning ikkinchi guruhiga kiruvchi, uslub va sifat jihatdan avvalgilardan tamoman farq qiladigan asarlar yuzaga keldi. Taniqli tarixchi olim, akademik R.X.Aminova o'zining maqolalari va risolasida kollektivlashtirish siyosatining zo'ravonlikka asoslangan, qishloq va dehqonlar manfaatiga tamoman yot bir illat ekanligini dalillar asosida isbotlab berdi, totalitar tuzumning bu xato siyosatini keskin tanqid ostiga olib, uning salbiy oqibatlarini ko'rsatib, "quloq qilish" siyosatining zo'ravonlikka, qatag'onlik usullariga asoslanganligini dalillar asosida fosh etishga harakat qildi. Andijon davlat universiteti professori R.T.Shamsutdinovning qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish, quloqlashtirish, surgun qilingan quloq oilalarining taqdiri masalalariga bag'ishlangan qator monografik tadqiqotlari o'zbek tarixshunosligiga qo'shilgan muhim hissa bo'ldi. Bu asarlarda muammoning xaligacha o'rganilmagan ko'plab jihatlar qatorida quloqlarni sinf sifatida tugatish, surgun qilish, maxsus posyolkalarni tashkil etish va ularni boshqarishda OGPU organlarining faoliyati masalalari ham atroflicha tahlil qilingan. Alinazar Egamnazarov tomonidan 1999- yilda nashr etilgan "Surgun" kitobida mustamlakachilik siyosatining ayanchli oqibatlari arxiv xujjatlari va avlodlar xotiralari asosida yoritib beriladi.

N.Karimov va boshqalar tomonidan 2000-yilda nashr etilgan "Surgun" deb nomlangan kitobda quloqlashtirish jarayonlari, oilalarning qo'chirilishi, bolalarning ahvoli va ularning keyingi taqdiri arxiv ma'lumotlari va xotiralar asosida yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu mavzu bo'yicha tadqiq qilingan tadqiqot ishlarini sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy asarlar bo'lib, ularning mavzuni tadqiq etish usullari farq qilgan. Sovet davriga mansub asarlarning barchasi kommunistik mafkura g'oyasi ruhida yaratilgan. Shu sababli ham tadqiqotchilar masalani to'la ochib bera olmaganlar, manbalarga tanqidiy baho bera olmaganlar. Mustaqillik yillarida sovet davri tarixini tamoman xolisona tadqiq etish, tariximiz qanday kechgan bo'lsa, shundayligicha o'rganishga kirishildi. Sovetlar hukmronligi davrida soxtalashtirilgan, yashirib ketilgan voqea-xodisalarni haqqoniy o'rganishga sharoit vujudga keldi. Xususan, 1930-1932 yillarda amalga oshirilgan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish, quloqlashtirish bilan bog'liq fojialar tadqiqotchilar tomonidan haqiqiy manbalarga tayanilib o'rganila boshlandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). 30-yillardagi majburiy migratsiyalarga bag'ishlangan ilmiy adabiyotda berilgan ma'lumotga qaraganda, yoppasiga jamoalashtirilgan rayonlardan 1930- yilning oxiriga qadar 371645 kishidan iborat 77795 oila shimoliy o'lkalarga surgun qilingan. Agar "quloqlashtirish" kompaniyasi 1939 yilga qadar davom etganini e'tiborga olsak, bu raqam yana bir necha marotaba oshadi.

Afsuski, jamoalashtirish va "quloqlashtirish" yillarida O'zbekiston bo'yicha qancha kishining "quloq" qiliib, Sibir, Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Shimoliy Qozog'iston, Belomorkanal va Moskva-Volga kanali qurilishlariga, shuningdek, respublika ichidagi mehnat posyolkalariga yuborilgani haqida aniq ma'lumot yo'q. Rossiyalik tarixchi V.N. Zemskovning "Otechestvennaya istoriya" jurnalining 1994 yil 1-sonida e'lon qilingan "Quloqlar surguni" taqdiri (1930-1954 yy.)" maqolasida qayd qilinishicha, faqat 1930-1931 yillarda maxsus qishloqlarga ishlash uchun ko'chirib keltirilgan "quloqlar" soni 1 mln. 803 ming 5392 kishini yoki 391 ming 26 oilani tashkil etgan. [2.b.38]

Bu siyosatning eng ko'p jabr chekkanlari ham ayollar va bolalar bo'lgan. Sovet hukumatining "quloqlashtirish" siyosati natijasida maxsus ko'chmanchilar orasida maktab ta'limi va madaniy-ma'rifiy ishlar bilan bog'liq masalalar deyarli e'tibordan chetda qoldi. Asosiy e'tibor surgun qilinganlarning moddiy va turmush sharoitlariga qaratildi. 1930-1931 yillarda surgun qilingan oilalar orasida yarim milliondan ortiq bolalar bo'lib, ularning salmoqli qismini 8-11 yoshdagi bolalar tashkil etdi. SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining 1930 yil 3 oktabrdagi "Maxsus aholi punktlari to'g'risidagi" qaroriga agar mahsus aholi punktlarida zarur ijtimoiy-madaniy muassasalar (maktablar, tibbiy markazlar, onalik va bolalikni muhofaza qilish markazlari va boshqalar) bo'lmasa, maxsus qishloq aholisiga maxsus qishloq fuqarolar yig'inlari va madaniy muassasalar xizmat ko'rsatadi. [1. C.277]

Ota-onalarining vafoti tufayli minglab bolalar yetim qoldi; ularning ayrimlari qarindoshlari qaramog'iga berildi yoki bolalar uylariga joylashtirildi. Birgina 1931 yilda Ural, G'arbiy Sibir va Shimoliy Qozog'istonda taxminan 12 500 nafar bola hamda 10 000 dan ortiq keksa yoshdagi insonlar vasiylik yoki parvarishga topshirildi. Bundan tashqari, 4500 nafar yetim boladan 2000 dan ortig'i bolalar uylariga joylashtirildi. 1935 yil 15 dekabrda SSSR Xalq Komissarlari Kengashi va Butunittifoq Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi Markaziy Qo'mitasi maxsus posyolkalardagi maktablar to'g'risida qaror qabul qildi. Unda RSFSR Xalq Maorif Komissarligining maxsus ko'chirilganlar farzandlarini o'qitish va tarbiyalash borasidagi faoliyati qoniqarsiz ekanligi qayd etildi. 1930-1931 yillarda ta'lim ishlari olib borilmadi. SSSR Xalq Komissarlari Kengashining (XKK) 1931 yil 16 avgustdagi qarorida maxsus ko'chirilganlarning farzandlari uchun alohida maktablar hali qurilmagan hududlarda, viloyat va o'lka ijroiya qo'mitalariga ushbu bolalarni Xalq ta'limi Komissarligi tasarrufidagi mavjud maktablarga umumiy asoslarda qabul qilish bo'yicha ko'rsatma berildi. Narkompros, Moliya Xalq Komissarligi va OGPU zimmasiga 1931 yilda maxsus ko'chirilganlarning farzandlarini o'qitish xarajatlarini qoplash uchun mablag' manbalarini aniqlash vazifasi yuklatildi, Narkompros esa 1932 yilga mo'ljallangan xarajatlarni kelgusi yil uchun budjet smetasiga kiritish talab qilindi.

Odamlar turli kasalliklarga chalinib, o'la boshladi. Mening ikki singlim ham vafot etdi. Bahorda Skadovsk tuman markazida 130 tarbiyalanuvchisi bo'lgan yetimxona ochildi. Chalbasa, Kruglyanda, Kaxovkada ham bolalar uylari ochildi. Keyin bu bolalar uylari Novaya Mayachkaga ko'chirildi. U yerdagi bolalar uyida 500 bola tarbiyalangan. Ayniqsa, 1932-33-yillardagi ocharchilikda ko'p odam qirildi.

Men Skadovsk tumanidagi 1-paxtachilik davlat xo'jaligining IV bo'limida tashkil etilgan 6-o'zbek maktabida o'qiganman. 1937- yilda bu maktabning 7-sinfini bitirganimdan so'ng, boshqa tengqurlarim qatori menga ham Toshkentga borib o'qishga ruxsat berishdi[3].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda sovet hukumati davlat boshqaruviga kelgandan boshlab, o'zining

1932-1934 yillarda maxsus ko'chirilganlarning tug'ilishi va o'lim soni jadvali.

Районы спецпоселений	1932 г.		1933 г.		1934 г.	
	родилось	умерло	родилось	умерло	родилось	умерло
Урал	6 540	32 645	3 894	51010	3 157	10 970
Северный край	1 594	4 664	1 606	15 355	403	2 192
Западная Сибирь	3 975	15 616	5 557	26 709	5 132	9 082
Восточная Сибирь	1444	14 479	1079	2 022	840	3 415
Дальне-Восточный край	531	901	688	6 529	661	1 290
Алдан	78	188	116	226	92	118
Северный Казахстан	1476	21344	1 535	25 293	1 794	6 018
Южный Казахстан	425	1867	547	6 937	377	658
Средняя Азия	499	4156	241	3 469	301	518
Украина	383	704	152	2 379	179	538
Нижегородский край	146	211	177	638	77	403
Ленинградская обл.	465	1090	438	835	333	600
Северный Кавказ	703	2 845	341	7 107	311	1 585
Средняя Волга	54	411	74	1 155	30	241
Башкирия	105	1090	257	1066	244	602
Бел бал т-комбинат			15	76	202	1 777
Всего:	18 053	89 754	17 082	151601	14 033	40 012

Источник: ГАРФ. Ф. 9479. Он. 1. Д. 89. Л. 208-210.

ADABIYOTLAR

1. Волкогонов Д. Триумф и трагедия. И.В. Сталин. Политический портрет в двух книгах. – М.: 1989.
2. Данилов В.П. Коллективизация: как это было?//Страницы истории советского общества: люди, проблемы, факты. – М.: «Политиздат», 1989.
3. Зеленин И. Е. Осуществление политики ликвидации кулачества как класса. // «История СССР». – М.: 1990, № 6.
4. Земсков В.Н. Спецпоселенцы: по документам НКВД-МВД СССР.// Социологические исследования, 1990 № 11.
5. Иваницкий Н.А. Судьба раскулаченных в СССР. Москва. Собрание 2004.
6. Каримов Н. Катта киргиннинг келиб чиқиш сабаб ва омиллари. Тошкент. Фан. 2013 йил.
7. Михайлов Н, Тепцов Н, Чрезвычайщина, // «Родина», 1989, №5.
8. Эгамназаров Алиназар. Сургун. Т. “Адолат”. 1999 й.